

KRIPTOVALYUTA VA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARINING TALABALARNING MOLİYAVIY BILIMLARIGA TA'SIRI

Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi

*Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,
Moliya sohasida boshqaruv yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalarining talabalar moliyaviy savodxonligiga ta'siri o'rganildi. So'rovnoma asosida olingan natijalar talabalarning ushbu texnologiyalarga qiziqishi yuqori ekanligini, biroq bilim va amaliy tajriba darajasi yetarli emasligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida talabalarning asosiy bilim manbalari internet va norasmiy manbalar ekani aniqlandi. Shuningdek, respondentlarning katta qismi kriptovalyuta asoslarini zamonaviy moliyaviy savodxonlikning muhim qismi deb hisoblashini bildirib o'tdi. Maqolada ushbu yo'nalishda o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish bo'yicha takliflar berilgan.

Abstract. This article examines the impact of cryptocurrencies and blockchain technologies on students' financial literacy. Survey results revealed a high level of interest among students in these technologies, though their knowledge and practical experience remain insufficient. The study found that the primary sources of information for students are the Internet and informal resources. Furthermore, the majority of respondents believe that the basics of cryptocurrency should be considered an essential component of modern financial literacy. The article provides recommendations for developing educational programs and organizing practical training in this field.

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние криптовалют и технологии блокчейн на финансовую грамотность студентов. Результаты опроса показали, что интерес студентов к этим технологиям высок, однако уровень знаний и практических навыков остается недостаточным. Исследование выявило, что основными источниками информации студентов являются интернет и неофициальные ресурсы. Большинство респондентов отметили, что основы криптовалюты следует рассматривать как важную часть современной финансовой грамотности. В статье предложены рекомендации по разработке образовательных программ и организации практических занятий в этой области.

Kalit so'zlar: Kriptovalyuta, Blokcheyn, Moliyaviy savodxonlik, Talabalar, So'rovnoma.

Kirish. Zamonaviy moliya tizimida kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalarining ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Ushbu innovatsion

yechimlar nafaqat pul o'tkazmalari va investitsiyalar sohasida, balki smart-kontraktlar, raqamli identifikatsiya hamda tarmoqli iqtisodiyot kabi yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yosh avlod uchun bu texnologiyalarni chuqur tushunish moliyaviy savodxonlikni oshirish va kelajakdagi kasbiy imkoniyatlarni kengaytirish nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. O'zbekistonda ushbu sohaning rivojlanishi dinamik tus olgan bo'lsada, oliy ta'lim tizimida tegishli bilimlarni shakllantirish hali boshlang'ich bosqichda. Hozirgi kunda talabalar uchun kriptovalyuta va blokcheyn asoslarini o'rganish imkoniyatlari asosan nodavlat ta'lim platformalari va o'z-o'zini o'rgatish usullari bilan chegaralangan. Bu esa talabalarning ushbu sohaga bo'lgan qiziqishi bilan mavjud ta'lim resurslari o'rtasidagi tafovutni kuchaytirmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlardagi yetakchi universitetlar blokcheyn texnologiyalarini ixtisoslashtirilgan ta'lim dasturlariga integratsiya qilgan. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun ham bu yo'nalishda qadam tashlash nafaqat talabalarning zamonaviy ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki mamlakatning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston oliy ta'lim kontekstida kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalarini o'qitishning dolzarb jihatlarini o'rganish, so'rov natijalari asosida talabalar ehtiyojlarini aniqlash hamda universitetlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.


Metodologiya. Ushbu tadqiqot 2025-yil iyul oyida Namangan davlat universiteti (NamDU) talabalari orasida o'tkazildi. Uning asosiy maqsadi – kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalariga oid talabalar bilim darajasi, qiziqishi hamda ta'lim ehtiyojlarini aniqlash orqali universitetda zamonaviy moliyaviy texnologiyalar bo'yicha ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot dizayni sifatida kross-seksional so'rov usuli tanlandi va ma'lumot yig'ish Google Forms platformasi orqali onlayn tarzda amalga oshirildi. Respondentlar sifatida NamDUning iqtisodiyot, axborot texnologiyalari (IT) va muhandislik fakultetlarida tahsil olayotgan 1–4-kurs talabalari jalb qilindi. So'rovnoma jami 85 nafar respondentni qamrab oldi, ulardan 46 nafari ayol va 39 nafari erkak talabalar edi. So'rovnoma uch asosiy bo'limdan iborat bo'ldi:

- Demografik ma'lumotlar (jins, kurs, yo'nalish);
- Bilim darajasi bahosi (kriptovalyuta va blokcheyn tushunchalarini bilish darajasini aniqlovchi savollar – 5 ballik Likert shkalasi asosida);
- Ta'lim ehtiyojlari va amaliy tajriba (talabalarning ushbu sohalardagi o'quv kurslariga bo'lgan qiziqishi va qatnashishga tayyorligi).

Masalan, respondentlardan “Kriptovalyuta tushunchasini qanchalik yaxshi bilasiz?” (1 – umuman bilmayman, 5 – juda yaxshi bilaman) yoki “Agar universitetda kriptovalyutaga oid kurs tashkil etilsa, qatnasharmidingiz?” kabi savollarga javob berishlari so'ralgan. Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun diskriptiv statistik usullar (foiz


ko'rsatkichlari, o'rtacha qiymatlar) va vizualizatsiya vositalari (stolbikli diagrammalar, doira diagrammalari) qo'llanildi. Shuningdek, talabalarning bilim darajasi fakultetlar kesimida solishtirildi va bilim darajasi bilan qiziqish o'rtasidagi mumkin bo'lgan bog'liqliklar ko'rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Olib borilgan tadqiqot natijalari talabalarning kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalari borasidagi qiziqishi, bilim darajasi hamda ushbu sohaga oid o'quv kurslariga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirdi. Birinchi navbatda, respondentlarning 51,8 foizi agar kriptovalyuta kursi tashkil qilinsa, "albatta qatnashaman" degan fikrni bildirgan. Yana 40 foiz talaba "ehtimol qatnashaman" deb javob bergan. Bu esa talabalar orasida bunday kurslarga umumiy qiziqish darajasi 90 foizga yaqin ekanini ko'rsatadi. Ushbu raqamlar talabalarning kriptovalyuta va blokcheyn sohasida bilim olishga tayyor ekanligini ifodalaydi. Kriptovalyutalar haqida, 30,6 foiz talaba internet maqolalari va bloglardan ma'lumot olgan. Yana 30,6 foizi esa do'stlar va tanishlardan bilib olishgan. Atigi 12,9 foiz talaba esa rasmiy ta'lim dasturlaridan xabar topishgan. Bu ko'rsatkichlar talabalarning ushbu yo'nalishdagi bilimlari asosan norasmiy va o'z tashabbuslariga asoslanayotganini anglatadi.




(Diagramma muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Bilim darajasi bo'yicha 5 ballik tizimda baholash shuni ko'rsatdiki, faqatgina 11,8 foiz talaba o'zini ushbu sohada yaxshi bilimga ega (4-5 ball) deb hisoblaydi. 38,8 foizi esa uni deyarli tushunmasligini (1-2 ball) bildirgan. Blokcheyn texnologiyalari bo'yicha vaziyat nisbatan ijobiyroq: 54,1 foiz talaba o'z bilimlarini o'rtacha (3 ball) darajada deb baholagan. Bu esa talabalar kriptovalyutadan ko'ra blokcheyn tushunchasi bilan ko'proq tanish ekanini anglatadi.



(Diagramma muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Talabalarning 30,6 foizi kriptovalyutalarni moliyaviy savodxonlikni oshirishga yordam beruvchi vosita sifatida baholagan. Biroq amaliy tajriba darajasi past bo'lib, 62,4 foiz talaba qisman foydali lekin cheklangan ta'sirga ega ekanini bildirgan. Kripto-hamyon ochgan talabalar ulushi 48 foiz, kriptovalyutalar haqida faqatgina nazariy tushunchaga ega bo'lgan talabalar 21,2 foiz, NFT savdosi bilan tanish talabalar esa 5 foizdan oshmagan. Bu holat amaliy mashg'ulotlarga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi.



(Diagramma muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Tadqiqot shuningdek, talabalarning 52,9 foizi kriptovalyuta asoslarini zamonaviy

moliyaviy savodxonlikning ajralmas qismi deb hisoblashini, 31,8 foizi esa buni ixtiyoriy kurs sifatida o'qish yetarli ekanini ta'kidlaganini aniqladi. Bu esa talabalarning ko'pchiligi ushbu sohaga oid bilimlarni kengroq qamrab olish tarafdori ekanligini anglatadi. Shuningdek, DeFi (markazlashtirilmagan moliya) va NFT (noalmashinuv tokenlari) kabi murakkab tushunchalar borasida talabalar orasida katta bo'shliq mavjudligi aniqlangan. Respondentlarning 48,2 foizi bu tizimlarni umuman tushunmasligini (1 ball), faqat 2,4 foizi esa yaxshi tushunishini (5 ball) bildirgan. Bu esa ushbu sohada kengroq tushuntirish ishlarini olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalariga bo'lgan qiziqishning talabalar orasida sezilarli darajada kuchli ekanini ko'rsatdi. Respondentlarning aksariyati ushbu sohalarni o'rganishga tayyor bo'lib, bu ularning raqamli moliya vositalarini o'zlashtirishga intilayotganidan dalolat beradi. So'rov natijalari talabalarning bilim manbalari asosan internet va ijtimoiy aloqalar bilan cheklanganini, rasmiy manbalardan foydalanish esa kamligini aniqladi. Bu esa chuqurroq tushuncha va amaliy tajribaga ega bo'lish uchun yanada tizimli o'rganishga ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, DeFi, NFT kabi murakkab tizimlarda talabalarning bilim darajasi past ekani ushbu yo'nalishlarda o'quv resurslari va amaliy mashg'ulotlar imkoniyatlarini kengaytirish zaruriyatini bildiradi. Umuman olganda, kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalarini o'rganish talabalarning moliyaviy savodxonligini oshirish, ularni global raqamli iqtisodiyot talablariga tayyorlash va kelajakda raqamli moliyaviy vositalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>
2. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. Penguin.
3. Chen, Y., & Bellavitis, C. (2020). Blockchain disruption and decentralized finance: The rise of decentralized business models. *Journal of Business Venturing Insights*, 13, e00151.
4. World Economic Forum (2021). Cryptocurrencies: A Guide to Getting Started. <https://www.weforum.org>
5. Karimov, I. (2023). Kriptovalyutalar va blokcheynning moliyaviy tizimlarga ta'siri. *O'zbekiston Iqtisodiyoti Jurnali*, 2(45), 55-61.
6. OECD (2022). Financial literacy and the role of digital assets. OECD Publishing.
7. European Central Bank (2021). Crypto-assets: developments and policy implications.
8. Rahmanov, U. (2024). Talabalarda moliyaviy savodxonlikni oshirishda zamonaviy texnologiyalar. *Moliyaviy Tadqiqotlar*, 3(12), 25-33.
9. Investopedia. (2023). What is Blockchain Technology? <https://www.investopedia.com>
10. CoinMarketCap (2024). Global Cryptocurrency Market Overview. <https://coinmarketcap.com>